



O'ZBEK TILIDAGI KO'Z KOMPLEMENTLI AYRIM SOMATIK FRAZEMALARNING PARADIGMATIK XUSUSIYATLARI

To'liyeva Shoira Ilhomovna

Qoraqalpoq davlat universiteti,
o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7114899>

ARTICLE INFO

Received: 22nd September 2022

Accepted: 24th September 2022

Online: 27th September 2022

KEY WORDS

ibora, frazema, turg'un birlikma, barqaror birlik, frazeologiya.

Ibora — tilimizning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so'zning ko'chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi. Masalan, xamirdan qil sug'urganday iborasi, "osonlik bilan", "qiyinchiliksiz" ma'nosini, ko'ngil bermoq iborasi "sevmoq" ma'nosini, qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasi "yuvosh" ma'nosini bildiradi. Xuddi so'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

N.Kacharova "ko'z" so'zi qatnashgan turk maqollarini tahlil qilar ekan, ularning tuzilishiga e'tibor qaratadi. "Ko'z" so'zining egalik qo'shimchasisiz va bu qo'shimchani olgan holatlari kelishiklarda tuslanib frazeologik birlik tarkibida kelishi mazkur ishning asosiy qismini tashkil qiladi [Kaçarova, 2014].

Ko'z umumturkiy so'z . Ushbu somatik birlik Alisher Navoiy asarlarida ham faol qo'llangan . Tilimizda ko'z somatizmi

ABSTRACT

ushbu maqolada o'zbek tilida mavjud bo'gan "ko'z" komplementli ayrim somatik frazemalar tahlilga tortilgan.

O'zbek tili iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko'pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatib turadi.

asosida yuzdan ortiq umumturkiy iboralar shakllangan. Bu haqda A.Isaev va A.Mamatovlarning tadqiqotlarida ham ma'lumotlar bor. Jumladan, A.Isaev tilimizdagi ko'zga ko'rinmoq, bo'yniga olmoq, tilini tiymoq, ko'zi och (bo'lmoq), bo'yin so'nmoq singari frazeologizmlar qadimda ham faol qo'llanganligini, qadimgi turkiy tildagi 249 ta iboradan hozirgi kunga kelib u yoki bu o'zgarishlar bilan 54 tasi saqlanib qolganligini, boshqalari esa asta-sekinlik bilan iste'moldan chiqib ketganligini ta'kidlaydi . Bunday holatni Alisher Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni tilida ham kuzatamiz: ko'z oldiga keltirmoq, xayol qilmoq ma'nolarini ifodalash uchun asarda ko'zga kiyurmoq iborasi qo'llangan, hozirgi kunda esa bu ibora tilimizda arxaiklashgan:

Tasvir etibon yuzi xayolin,

Ko'zga kiyurub qadi misolin.

Ko'z komplementli frazemalar insonning cheksiz va turli-tuman his-hayajonini, fiziologik jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladi, ularning asosiy qismi struktural



jihatdan ot+fe'l tuzilishiga ega bo'lgan ikki hamda uch komponentli fe'l iboralardir: ko'ziga ko'rinmoq, ko'zi tushmoq, ko'zdan qochirmoq, ko'zga tashlanmoq, ko'z yugurtirmoq, ko'zdan yo'qolmoq, ko'z(i)ga issiq ko'rinmoq, ko'z(i)ga yaqin ko'rinmoq, ko'z(i)ga sovuq ko'rinmoq, ko'z(i)ni to'rt qilmoq kabi.

Xalqimizda "ko'zi to'ymaydi" iborasi mavjud. U har qancha nazar solsa ham qoniqmaslik, har qancha mol-mulkka ega bo'lsa ham, yetarli deb bilmaslik ma'nolarini anglatadi. ("O'zbek tilining frazeologik lug'ati", 142-bet). T.Murod esa bu iborani inkor ma'noda emas, bo'lishli, tasdiq ma'noda ishlatadi: "Bozorni yaxshi ko'raman! Noz-me'matlardan ko'zim to'yadi. Shirin-shakarlardan ko'nglim to'yadi. Bozorda yeganim oldimda bo'ladi, yemaganim ketimda bo'ladi!" ("Otamdan qolgan dalalar", 195-bet). Aynan ushbu ibora qoraqalpoq tilidagi "kózi toymaw" iborasiga to'g'ri keladi. U qanoatlanmaslik, qizg'anchilik, biror narsani yegan sari yegisi kelish, biror narsani ko'rgan sari ko'rgisi kelish kabi ma'nolarni anglatadi. ("Qaraqalpaq tiliniń qisqasha frazeologiyaliq sózligi", 102-bet). "Jantaq atawdı tanıp bolmaydı, paxta bağı ırǵalıp turıptı, qarasań kóz toymaydı" (Ó. Xojaniyazov).

Ko'z komponentli frazeologik birliklarning ma'lum qismi sifat birikmalar bo'lib, struktural jihatdan ot+sifat(son) tuzilishiga ega. Masalan, ko'zi ko'r, qulog'i kar, ko'zi och, ko'zi to'rt, ko'zi ochiq, ko'zi tirik, ko'zi tor, ko'zi to'q, ko'zi o'tkir, ko'zga ko'rinarli kabi. Bu frazeologik birliklarning barchasi shaxsning ma'lum bir ichki ruhiy holatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'zini ochib qo'ymoq yoki ko'zini moshdek ochib

qo'ymoq iborasining ikki ma'nosi ta'kidlangan: 1) hushyor qilib qo'ymoq, o'ziga keltirmoq; 2) ta'zirini bermoq, boplamoq. 2006-yilda nashr etilgan yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa ko'zini moshdek ochib qo'ymoq iborasining faqat bir ma'nosi ta'kidlab ko'rsatilgan: qilgan ishiga yarasha tanbeh, jazo bilan o'ziga keltirib qo'ymoq.

Oybekning «Bolalik» qissasida ko'zi moshdek ochildi iborasi umuman boshqa ma'noni shakllantirgan. Qissada bu ibora darddan forig' bo'lmoq ma'nosini ifodalab, ijobiy munosabat ma'nosida qo'llangan: – Bo'ldi-bo'ldi, qutulding, chirog'im. Endi sog'san, – deydi boshimni silab ayol. Bechora bolani shuncha qiynabsizlar, mana ko'zi moshdek ochildi, – deydi ayol kulib, otamga qarab (Oybek. "Bolalik"). «O'tkan kunlar» romanida bu ibora muallif nutqida qo'llangan bo'lib, hushyor tortmoq ma'nosini bildiradi: Bu savoldan uning kayfi tarqalgandek bo'lib, ko'zlari moshdek ochildi (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar").

Ko'rinadiki, ko'zini moshdek ochmoq birikmaga teng iborasi va ko'zi moshdek ochildi grammatik jihatdan gapga teng qurilishli frazeologik birliklar ifodalagan ma'nolar bir-biridan farqlanadi.

Tilimizda ko'z komponentli ko'z qiri, ko'z qorachig'i, ko'z(i)ning qorachig'i, ko'zga dori singari ot hamda ko'zi bejo, ko'z ilg'amas, ko'zi taka-puka, ko'z ochib ko'rgan, ko'z qorachig'idek, ko'zini baqraytirib, ko'z qorasidek, ko'z qiri bilan, ko'z o'ngida, ko'z tagidan kabi ravish frazeologizmlar shakllangan.

Ko'z komponentli somatik frazeologik birliklar matnda o'ziga xos sintagmatik xususiyatlarni namoyon qiladi. Masalan, omonim frazeologik birliklarning ko'pchiligi ikki ma'noni anglatadi. Sh.Rahmatullaevning «O'zbek tilining



frazeologik lug'ati» da ko'z ilg'amas iborasi omonim ibora sifatida izohlangan: Ko'z ilg'amas I. Bilinear-bilinmas, mayda. II. Cheksiz, poyoni ko'rinmaydigan.

A.Qahhor «Sarob» romanida iboraning bilinar-bilinmas ma'nosidan foydalangan: Etagini ko'z ilg'amaydigan rang-barang, yirik-yirik er kartalari; bog'lar, chorbog'lardagi, xiyobon, ko'cha va yo'llardagi sadarayhonday qulf urib, namozshomgulday tarvaqaylab, gulixayridek bo'yga zeb berib o'sgan daraxtlar. H.Olimjon esa bu omonim frazemaning ikkinchi ma'nosini qo'llagan: Sening ko'z ilg'amas maydonlaringda, Jahannam qo'rqajak janglarni ko'rdim.

Shuningdek, o'zbek tilida "ko'zi yetdi" iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da – ishonmoq, ishonch hosil qilmoq kabi ma'nolarni bildiradi, deya izohlangan. Masalan, "Zarifa bilan Po'lat Shokirning darrov javob bera olmasligiga ko'zlari yetgach, uning qo'lidagi gazetani yulib oldilar" (Odil Yoqubov, "Tengdoshlar").

O'zbek tilidagi "ko'z(i)ni shira bosdi" iborasi – takabburlanmoq, tanib, tanimaslikka olmoq kabi ma'nolarni anglatadi hamda uning sinonimi "ko'z(i)ni yog' bosdi". Masalan, "Ko'zimni shira bosibdi, qo'riq ochishga tushunmabman, - deysiz-u..." (Odil Yoqubov, "Bo'rondan kuchli"), "Yaxshi mol kelsa, ko'zingizni shira bosadi" (R.Fayziy, "Cho'lga bahor keldi").

Shuningdek, o'zbek tilidagi "ko'z ko'rib, quloq eshitmagan" iborasi frazeologik lug'atga kiritilmagan bo'lsa ham badiiy adabiyotda, og'zaki so'zlashuv uslubida hamda publitsistikada juda qo'llaniladi. Ushbu ibora hali hech kim guvohi bo'lmagan, noma'lum kabi ma'noni anglatadi. Masalan, "Qadimgi Xitoy ko'l

tadqiqotchilari uni Shimoliy dengiz deb atashgan, «Ko'l xudolari» va «Ajdaho baliqlar» deb atalgan ko'z ko'rib, quloq eshitmagan jonzotlar haqida ma'lum qilishgan" (geografiya.uz, "Baykaldagi sirli hodisalar").

O'zbek tilida "ko'zi ko'r, qulog'i kar", "ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ldi" hamda "ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilmoq" kabi iboralar mavjud. Bu iboralar Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug'atiga kiritilgan bo'lib, hech narsadan bexabar bo'lmoq, hech narsani ko'rmaydigan, eshitmaydigan bo'lmoq kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan, "Kutayotgan lahzasining ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lishini istaydi to'g'on" (Blaje Koneski, "To'g'on"). Shuningdek, Turdi Farog'iyning ijodida ham ushbu iboradan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin. U o'zining "Subhonqulixon to'g'risida hajviya" nomli asarida beklar va to'ralarning elga solgan jabrini ko'rib ularni "ko'zi ko'r, qulog'i kar" beklar deya ataydi. Ularni payg'ambar shariatiga xilof ish tutishda ayblab, yurt xoli uchun achinadi:

Ey yuzi qora, ko'zi ko'r, qulog'i kar beklar,
Bilingiz bu so'zimi pandi sarosar, beklar,
Aylangiz payravi shar'i payg'ambar, beklar,
Sizga darkor bu yurt, ey gala zanglar,
beglar,

Bu qadim naql erur: el rabotu to'ra qo'noq.
(Turdi Farog'iy, «Subhonqulixon to'g'risida hajviya»)

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili kontekstlarida esa hozirgi kunda, frazeologizmlar frazeologik chatishma (ibora), frazeologik birlik, frazeologik birikma kabi atamaları bilan yuritiladi. Turkiyshunoslikda, xususan, o'zbekshunoslikda frazeologiya sistem ravishda, hanuzgacha to'la o'rganib chiqilgan deya olmaymiz.



O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni uslubiy o'rganish yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash lozim. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarining

uslubiy qo'llanish xususiyatlari ko'pgina nomzodlik dissertatsiyalarida o'z aksini topgan.

References:

1. Rahmatulayev. Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" / "O'qituvchi" nashriyoti, T.1978-yil.
2. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev, D. Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. Toshkent. "Iqtisod-Moliya", 2006 yil. 76-bet.
3. Saidxonov Ma'murjon "Ishora fe'llarini o'rgatish xususida" Til va adabiyot ta'limi 2009-yil 10-son.
4. G'ulomov A., Nematov H., Ona tili ta'limi mazmuni "Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma" Toshkent, "O'qituvchi", 1995-yil.